

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN NAZORAT KASSA MASHINALARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Nazorat kassa mashinalari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Nazorat kassa mashinalari

1. Fanning maqsad va vazifalari. O‘zbekiston Respublikasida nazorat kassa mashinalarini qo‘llashning huquqiy asoslari;
2. Nazorat kassa mashinalari tarixi va ular haqida umumiy ma’lumotlar;
3. O‘zbekiston Respublikasi hududida foydalanishga ruxsat etilgan nazorat -kassa mashinalari;
4. Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi hisob -kitoblar tizimiga onlayn nazorat kassa mashinalari va ro‘yxatga olish;
5. Elektron to‘lov tizimlari;
6. O‘zbekiston Respublikasi soliq organlarida axborot texnologiyalarini joriy qilishning huquqiy asoslari va tamoyillari;
7. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlarni ishlashning yagona kompyuter tizimining maqsadlari va masalalari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalari va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalari	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Fanning maqsad va vazifalari. O'zbekiston Respublikasida nazorat kassa mashinalarini qo'llashning huquqiy asoslari.	«Nazorat kassa mashinalari va terminallar» fanining maqsad va vazifalarini, qo'llanilish sohalari va istiqbollarini, fanning asosiy mazmuni va uning soliq, moliya-iqtisodiyot va huquqiy fanlar bilan aloqasini biladi. O'zbekiston Respublikasida nazorat kassa mashinalarini qo'llashning huquqiy asoslari haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.	12,5 %	5 ta
2	Nazorat kassa mashinalari tarixi va ular haqida umumiy ma'lumotlar	Nazorat kassa mashinalari tarixi va ular haqida umumiy ma'lumotlarni, elektron nazorat qayd etuvchi mashinalar tarixini, O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanishga ruxsat etilgan nazorat kassa mashinalari turlarini, nazorat kassa mashinalarida ishlash tartibi va ularda ishlashning xavfsizlik texnikasini, nazorat kassa mashinalarida ishlashning texnika xavfsizligi qoidalari, nazorat kassa mashinalarini ishga tayyorlash hamda ularni ta'mirlash haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.	7,5 %	3 ta
3	O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanishga ruxsat etilgan nazorat -kassa mashinalari.	Foydalanishga ruxsat etilgan nazorat kassa mashinalarida kassa ishini nazorat qilib borishni, O'zbekiston Respublikasida qo'llashga ruxsat etilgan nazorat kassa mashinalari modellari bilan ishlash texnologiyalarini, hisob - kitoblarni nazorat kassa mashinalari yordamida yuritishni, savdodan tushgan naqd pul hisobini to'g'ri va aniq olib borishni, to'lovlarning belgilab qo'yilgan muddatlarda bank muassasalariga kelib tushishi, moliyaviy va soliq hisob kitoblarining to'g'riligi ustidan nazorat qilishni, kassa mashinalaridan foydalanish, hisobotlar olishni, soliq idoralari tomonidan nazorat kassa mashinalarining qo'llanilishini tekshirish haqida ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	5 %	2 ta
4	Savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi hisob - kitoblar tizimiga onlayn nazorat kassa mashinalari va ro'yxatga olish	Savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi hisob - kitoblar tizimiga onlayn nazorat kassa mashinalari va ularni joriy qilish tartibi to'g'risida ma'lumotni, onlayn nazorat -kassa mashinasi, fiskal hujjatlarni fiskal ma'lumotlar operatoriga real vaqt rejimida uzatishni ta'minlovchi va qog'ozga chop etuvchi elektron hisoblash mashinalari, boshqa qurilmalar va	27,5 %	11 ta

		ularning komplekslarini, sotuvchi onlayn - NKM yoki virtual kassada to'lovni qayd etishi, to'lov ma'lumotlari onlayn NKM yoki virtual kassa orqali fiskal ma'lumotlar operatoriga yuboriladi va xaridorga maxsus QR -kodli chek taqdim etilishi ustidan nazorat qilishni, mahsulot va xizmatlarning identifikatsion kodi haqida (MXIK), tasnif.soliq.uz portal haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.		
5	Elektron to'lov tizimlari	Elektron to'lov tizimlari , marketpleys, internet do'konlar , banklarning mobil ilovalari , ulardan foydalanish, sozlash, xavfsizlikni ta'minlash haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	22,5 %	9 ta
6	O'zbekiston Respublikasi soliq organlarida axborot texnologiyalarini joriy qilishning huquqiy asoslari va tamoyillari	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining soliq tizimida ma'lumotlarni ishlashning yagona kompyuter tizimini yaratish to'g'risidagi qarorlari, soliq qo'mitasi buyruqlarini, soliq to'lovchilarga yaratilayotgan imkoniyatlar, ko'rsatilayotgan elektron davlat xizmatlarini, soliq qo'mitasining rasmiy veb sayti, veb portali va mobil ilovalari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	15 %	6 ta
7	O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlarni ishlashning yagona kompyuter tizimining maqsadlari va masalalari.	Soliq xizmati organi ma'lumotlarini ishlashning yagona kompyuter tizimining asosiy maqsadlari, markaziy avtorizatsiya tizimini, elektron raqamli imzo (ERI), soliq to'lovchilar elektron raqamli imzo kalitlarini ro'yxatga olish. ERI yopiq kaliti; ERI ochiq kaliti; ERI kalitining sertifikat, soliq xizmati organlarida amaliyotga joriy etilgan axborot tizimlari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	10 %	4 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	62,5 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	17,5 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. T-"Adolat" -2020 yil.
2. "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2022 yil 10 oktabr// (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - Lex.uz).
3. "Elektron hukumat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 2015 yil 9 dekabr, O'RQ-395. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - Lex.uz).
4. Elektron tijorat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 2022 yil 29 sentabr.

5. Maxmudov A.Qurbanov Z. N. «Nazorat kassa mashinalari». Farg‘ona-2003 y.
6. onlayn kassa mashinalari va virtual kassalardan foydalanish yo‘riqnomalari.
7. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. T-“Adolat” -2020 yil.
8. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi qonuni. 1997 yil 29 avgust (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi - Lex.uz).
9. “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2022 yil 10 oktabr// (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi - Lex.uz).
10. “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2004 yil 29 aprel
11. “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 2015 yil 9 dekabr, O‘RQ-395. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi - Lex.uz).
12. K.Djuraeva, R. Xo‘jaqulov, “Soliq tizimida dasturiy mahsullar” 1-qism, o‘quv –uslubiy qo‘llanma, Soliq akademiyasi 2012 yil.
13. K.Djuraeva, “Soliq tizimida dasturiy mahsullar” 2-qism, o‘quv qo‘llanma, Toshkent “EI-Express”, 2013 yil.
14. K.Djuraeva, “Soliq tizimida dasturiy mahsullar” 3-qism, o‘quv qo‘llanma, Toshkent “EI-Express”, 2014 yil.
15. K.Djuraeva, “Soliq tizimida dasturiy mahsullar”, o‘quv qo‘llanma, Toshkent Voris, 2016 yil.
16. Soliq tizimida joriy qilingan axborot tizimlarining reglamentlari va yo‘riqnomalari.